

XIX ASR REALIZM: AYOL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI ZIDDIYAT (G.FLAUBERT, L.TOLSTOY VA T.FONTANE ASARLARI MISOLIDA)

Mahmudova Marjona Nosir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy Filologiya fakulteti, 4-bosqich talabasi.

E-mail: mahmudovamarjona544@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15834030>

Annotatsiya. Ushbu maqolada realizm adabiy yo'nalishining XIX asrdagi rivoji doirasida ayol va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar tahlil qilindi. Tadqiqot markazida uchta klassik asar: Gustave Flaubertning "Madam Bovary" (Bovari xonim), Lev Tolstoyning "Anna Karenina" va Theodor Fontanenining "Effi Briest" romanlari turadi. Ushbu asarlarda ayol qahramonlarning orzu-umidlari, shaxsiy erkinlik intilishi va jamiyat me'yorlariga qarshi borishi natijasida yuzaga kelgan ichki va tashqi ziddiyatlar yoritildi. Maqola realizmda ayol obrazining tahlili orqali XIX asr jamiyatining axloqiy, ijtimoiy-madaniy muhitini ochib beradi. Qiyosiy yondashuv asosida yozuvchilarning uslubi, ijtimoiy pozitsiyasi va fojiali yakunlar orqali bildirilgan tanqidiy qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Realizm, XIX asr adabiyoti, ayol obrazi, jamiyat inqirozi, Madame Bovary, Anna Karenina, Effi Briest, gender muammosi, psixologik ziddiyat, Yevropa realizmi.

РЕАЛИЗМ XIX ВЕКА: КОНФЛИКТ МЕЖДУ ЖЕНЩИНОЙ И ОБЩЕСТВОМ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Г.ФЛАУБЕРТА, Л.ТОЛСТОГО И Т.ФОНТАНЕ)

Аннотация. В данной статье рассматриваются конфликты между женщиной и обществом в рамках развития литературного направления реализма в XIX веке. В центре исследования находятся три классических произведения: «Госпожа Бовари» Гюстава Флобера, «Анна Каренина» Льва Толстого и «Эффи Брист» Теодора Фонтане. В этих романах освещаются внутренние и внешние противоречия, возникающие в результате стремлений женских героинь к личной свободе, осуществлению мечт и противостоянию общественным нормам. Статья через анализ женских образов в реализме раскрывает морально-социальную и культурную атмосферу XIX века. На основе сравнительного подхода анализируются стили авторов, их социальная позиция и критические взгляды, выраженные через трагические финалы произведений.

Ключевые слова: реализм, литература XIX века, женский образ, кризис общества, Госпожа Бовари, Анна Каренина, Эффи Брист, гендерная проблема, психологический конфликт, европейский реализм.

19TH CENTURY REALISM: THE CONFLICT BETWEEN WOMAN AND SOCIETY (THROUGH THE WORKS OF G.FLAUBERT, L.TOLSTOY AND T.FONTANE)

Abstract. This article analyzes the conflicts between women and society within the framework of the development of literary realism in the 19th century. The study focuses on three classic novels: Madame Bovary by Gustave Flaubert, Anna Karenina by Leo Tolstoy, and Effi Briest by Theodor Fontane. These works highlight the internal and external conflicts that arise from the female protagonists' aspirations, pursuit of personal freedom, and defiance of societal norms. Through the analysis of female characters in realist literature, the article reveals the moral, social, and cultural atmosphere of the 19th century. Using a comparative approach, the authors' styles, social positions, and critical perspectives – reflected in the tragic endings – are examined.

Keywords: realism, 19th-century literature, female character, social crisis, Madame Bovary, Anna Karenina, Effi Briest, gender issues, psychological conflict, European realism.

Kirish: XIX asrda Yevropa adabiyoti muhim burilishlardan birini boshidan kechirdi.

Realizm yo'nalishining shakllanishi adabiy tafakkurda hayotni haqqoniy, xolis va chuqur ijtimoiy-tanqidiy yondashuvni tasvirlashga olib keldi. Realist yozuvchilar idealistik yoki romantik ohanglardan voz kechib, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarga e'tibor qaratdilar. Ayniqsa, realistik asarlarda ayol obrazlari orqali jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, gender tengsizligi va insoniy erkinlik muammolari yoritildi.

Adabiyotlar tahlili: XIX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida keskin o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Yevropada sanoat inqilobi ta'sirida shakllangan yangi ijtimoiy qatlamlar, shaharlardagi hayotning murakkablashuvi, axloqiy qadriyatlar inqirozi va ayollar mavqeiga bo'lgan munosabat o'zgarib borar edi. Ana shu real ijtimoiy sharoit, badiiy ifoda vositalarida ham yangilanish talabini yuzaga keltirdi. Endi jamiyat ideallashtirilgan hayot tasviriga emas, balki o'zini, kundalik turmushini, ichki iztirob va tashqi bosimlarni aks ettiruvchi adabiyotga muhtoj edi. Shunday murakkab tarixiy jarayonda realizm adabiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Bu yo'nalish hayotni qanday bo'lsa, aynan shunday tasvirlashga, jamiyatdagi muammolarni yashirmasdan ko'rsatishga, inson psixologiyasi va ichki dunyosini chuqur ochishga intildi. Realistik adabiyot o'quvchiga o'z hayotini aks ettiruvchi oynani tutdi. Unda orzular emas - haqiqat, xayollar emas - muammolar, hissiyot emas - mas'uliyat aks etardi.

Yevropa adabiyotida realizm adabiy oqimi XIX asrning 30–40-yillariga kelibgina mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. Biroq, uning ildizlarini ilgariroq Uyg'onish va Ma'rifatparvarlik davri adabiyotida ko'rish mumkin. Ayniqsa, inson shaxsiyatiga, bilimga va aqlga asoslangan qarashlar, jamiyatga xolis nazar, hayotni tahlil qilishga bo'lgan intilish keyinchalik, realizmning nazariy asoslarini tayyorlab berdi. Shunga qaramay, realizm to'laqonli adabiy oqim sifatida XIX asr jamiyatining chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari, inqiloblar va sinfiy ziddiyatlar fonida yuzaga chiqdi.

Romantizm davri adabiyoti uzoq yillar davomida jamiyat tafakkurida hukmronlik qildi.

Odamlar orzular, hissiyotlar va idealistik tasvirlarga berilib yashar edi. Ammo bu orzular haqiqat bilan to'qnashgan pallada, ayniqsa, 1830–1848 yillardagi inqiloblar, sanoat inqilobi, burjua jamiyatining shakllanishi fonida adabiyot jamiyat ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi.

Haqiqatga ochlik, muammolarga tik boqish istagi, hayotdagi tengsizlik va adolatsizlikni anglashga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Shunday ijtimoiy muhitda realizm adabiyot maydoniga kuch bilan kirib keldi. Realistik yozuvchilar orzular olamidan voz kechib, insonni jamiyatdagi o'rni bilan, uning kundalik hayoti, ichki kechinmalari va ijtimoiy bosimlar bilan tasvirlashga kirishdilar. Ularning asarlarida shaxsiy taqdir va ijtimoiy sharoit o'zaro bog'liq holda ko'rsatiladi. Realizm hayotga oynadek qaraydi, uni bo'yalmagan holda, barcha murakkabligi bilan ochib beradi. Bunday adabiyot endi nafaqat estetik zavq uchun, balki ijtimoiy anglash uchun ham yozilar edi.

Realistik adabiyotning rivojlanishida bir qator muhim yozuvchilar faol ishtirok etadi.

Fransiyada – F.Stendal, O.Balzak, P. Merime, G.Flaubert, Sh.Bodler, P.Beranje; Angliyada – Ch.Dikens, U.Tekkeray, E.Gaskell, Sh.Bronte, J.Eliot; Amerikada – U.Uitmen, G.Bicher-Stou; romantizmning ta'siri hali saqlanib turgan Germaniyada H.Hayne va Teodor Fontane; Rossiya adabiyotida esa F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy kabi ijodkorlar realizmning umumiy qonuniyatlarini ishlab chiqish bilan birga, har bir mamlakat adabiyotida unga milliy ruh va uslub baxsh etdilar. Bu yozuvchilar asarlarida hayotning haqiqatini ifodalash, jamiyatdagi muammolarni ochib berish, inson qalbi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi muvozanatni tasvirlash asosiy badiiy vazifa sifatida ilgari surildi.

Ayniqsa, ularning asarlarida ayol obrazi orqali realizmning eng nozik va ogʻriqli nuqtalari ochib berildi. Bu davr adabiyoti orqali oʻquvchi birinchi marta hayotning tashqi goʻzalligidan emas, ichki ogʻriqlaridan xabardor boʻldi. Realistik yozuvchilar ayol obrazini idealistik timsollardan holi, hayotning oʻziga xos sharoitlarida mavjud boʻlgan inson sifatida koʻrsatishga urindi.

Oʻsha davr jamiyatida ayollarga nisbatan hukmron boʻlgan munosabat ularning faqatgina ona, xotin yoki bezak sifatidagi ijtimoiy roli bilan cheklangan edi. Ayollarning fikri, istagi, ichki olami inobatga olinmasdi. Ayniqsa, ular turmushga chiqgach, ijtimoiy jihatdan “egallangan” hisoblanardi. Ularning harakati, muhabbati, hissiyotlari jamiyat tomonidan nazorat qilinishi kerak boʻlgan “obyekt” sifatida qaralardi. Realistik adabiyotlar orqali ayol obrazlari hayoti va taqdirini ochib berishda Gustav Flaubertning “Madame Bovary” (Bovari xonim), Lev Tolstoyning “Anna Karenina” va Theodor Fontanenining “Effi Briest” asarlari alohida oʻrin tutadi. Ushbu romanlar turli milliy adabiyotlar doirasida yozilgan boʻlishiga qaramay, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat - markaziy ayol qahramonlar taqdiri orqali jamiyatdagi axloqiy meʼyorlar, gender stereotiplari va ijtimoiy bosimlarni yoritishidir. Mazkur uch asar oʻz milliy adabiyotlarida realizmning taraqqiy etishida muhim bosqich boʻlib, ularning barchasida ayolning jamiyat bilan boʻlgan murakkab munosabati, ichki ziddiyatlari va tanlov erkinligi masalasi markaziy oʻrinda turadi. Shu orqali realizm inson va jamiyat munosabatlarini yanada teran, real va ijtimoiy mazmunga ega shaklda yoritishga muvaffaq boʻladi.

Gustav Flaubertning “Madam Bovary” (Bovari xonim) romani syujetida oddiy va joʻn voqea tasvirlangan. Kollejni tamomlagan Sharl Bovari, onasining qarori bilan tibbiyot fakultetida oʻqiydi. Oʻqishni tugatgach, u Normandiyaning Tost shaharchasida shifokorlik qila boshlaydi. Bir muncha muddatdan keyin onasining saʼy-harakatlari bilan badavlat, qirg yoshlardan oʻtib qolgan beva ayolga uylanadi. Kunlarning birida Sharl mahalliy fermerni davolash uchun uning uyiga boradi va Ruoning qizi Emma bilan tanishib qoladi. Xotini vafot etgach, Emmalarning uyiga tez-tez borib turadi va uning qoʻlini soʻrashga jazm qiladi. Qizning otasi roziligini beradi va dabdaba bilan qizini uzatadi. Yoshligidan koʻplab romantik asarlarni oʻqigan, romantik orzularga berilgan qiz boshqalardan ajralib turmaydigan oddiy qishloq doktoriga turmushga chiqadi va farzandli boʻladi. Biroq yoshlar birga yashay boshlagandan keyin tez orada Emma Sharlni sevmasligini tushunib yetadi. Sharl esa, aksincha, Emma bilan yashayotganidan baxtiyor edi. Yashayotgan hayotidan qoniqmagan ayol, ikkita erkak bilan don olishib yuradi, keyin esa qarzga botib, turmush oʻrtogʻi uni shuncha yillardan buyon sidqidildan, sadoqat bilan sevishini xayoliga ham keltirmay, oʻz joniga qasd qiladi. Bu oddiygina voqea yozuvchining yuksak iqtidori tufayli ayol qalbini chuqur psixologik tadqiq qilishga aylandi. Shu sababli roman kitob holida chop etilgandan keyin, Flaubert XIX asrning buyuk realist yozuvchisi sifatida eʼtirof etila boshlandi. Maktublarining birida Flaubert roman qahramoni haqida: “U maʼlum darajada maʼnaviy aynigan, poeziya haqida buzuq tasavvurga ega, his-tuygʻulari buzilgan ayol”, – deb yozadi. Emmaning tabiati “romantik tarbiya” oqibatida buzilgan edi. Qiz monastirda romantik romanlarni haddan ziyod berilib mutolaa qilganidan oʻsha qoliplardan chiqolmay qoladi. U kitoblarda faqat ishq-muhabbat haqida yozilgan boʻlardi: maʼshuqalar, jazmani koʻp xotinlar, kimsasiz ayvonlarda oʻzidan ketib qoladigan juvonlar, yurak dard-hasratlari, qasamyodlar, oʻpichlar, oy yorugʻi tushib turgan yengil qayiqchalardagi sarguzashtlar, chakalakzorlardagi bulbul navolari, sher kabi botir, qoʻzichoqdek beozor, beqiyos saxovatli, bekam-koʻst kiyingan, koʻzlari daryo-daryo yoshlarga toʻlib toshgan qahramonlar.

Asar qahramonining mana shunday muhit ichida o'sib ulg'ayishi uni fojiali hayot tarzi yakuniga olib keladi.

Fransuz yozuvchisi G.Flaubertning 1856-yilda yozilgan "Madam Bovary" (Bovari xonim) romanidan so'ng rus yozuvchisi Lev Tolstoy o'zining 1877-yili yozilgan "Anna Karenina" romani orqali rus adabiyotini yana bir realistik asar bilan boyitdi. Tolstoyning Anna Karenina romani o'zining mashhur birinchi jumlasini bilan boshlanadi: *"Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdir"*¹. Bu ibora romanning butun mazmunini va falsafiy asosini ifodalaydi: oilaviy munosabatlar, ijtimoiy axloq va insoniy tanlovlar. Asar syujeti Anna Kareninaning akasi Stepan Arkadyevich Oblonskiyning oilasida kelib chiqqan xiyonat va nizolar bilan boshlanadi. Oiladagi inqirozni bartaraf etish maqsadida Moskva shahriga kelgan Anna ilk bor Vronskiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv uning hayot yo'lini butunlay o'zgartirib yuboradi. Anna jamiyatda hurmatli, obro'li, davlat arbobi Aleksey Karenin bilan turmush qurgan ayol sifatida tanilgan. U intizomli, tashqi hayotda silliq, muvozanatli ko'rinadi, ammo ichki olamida iliqlik va mehrdan mahrum turmushidan noroziligini yashirib yashaydi. Vronskiy bilan uchrashuv uning hayotidagi muhim burilish nuqtasi bo'ladi.

Bu sevgi uni chinakam yashashga, haqiqiy tuyg'ularni his qilishga sababchi bo'ladi.

Ammo jamiyat Anna tanlagan yo'lni qabul qilmaydi. Anna o'z sevgisi uchun bor narsasidan voz kechadi: oilasi, farzandi, ijtimoiy mavqei. Biroq jamiyat bu jur'atni kechirmaydi.

U jamiyatdan asta-sekin ajraladi: do'stlardan, oila a'zolaridan, hatto o'z sevgan insonidan ham yiroqlasha boshlaydi. Uning ruhiy holati og'irlashadi, shubha, yolg'izlik, sevgidagi ishonchsizlik uni ichkaridan yemira boshlaydi.

Roman oxirida Anna o'zining tanlagan yo'li – jamiyatdan mustaqil bo'lish, sevgi asosida yashash unga erkinlik emas, balki yolg'izlik va fojia olib kelganini anglaydi. U umidsizlik ichida temiryo'l relslariga o'zini tashlab, joniga qasd qiladi. Bu o'lim shunchaki shaxsiy fojia emas, balki ayolga nisbatan jamiyatning sovuq, qattiq va murosasiz munosabatiga nisbatan ko'zgudir.

Tolstoy bu asar orqali ayol erkinligi, ijtimoiy me'yorlarning zo'ravon tabiati, muhabbat va axloq o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqida teran falsafiy savollarni o'rta tashlaydi.

Anna obrazida u nafaqat bir ayolning fojeasini, balki jamiyatdagi axloqiy mezonlarning nohaqligini ham fosh etadi.

Teodor Fontane tomonidan yozilgan "Effi Briest" (1895) romani XIX asr oxiri nemis burjua jamiyatining ijtimoiy-axloqiy tizimini tahlil qilishga qaratilgan realistik asardir. Asar syujetida yosh ayol Effining hayot yo'li, uning turmushidagi ichki iztiroblar, jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy me'yorlarga moslasha olmasligi va buning oqibatida yuzaga kelgan fojiaiy yakun tasvirlanadi.

Effi hali voyaga yetmagan, 17 yoshli qiz bo'lib, u ota-onasining roziligi va undovi bilan o'zidan ancha katta, amaldor Innstetten bilan turmush quradi. Bu nikoh shaxsiy tanlovga emas, balki ijtimoiy maqom va odob-axloq me'yorlariga asoslangan bo'lib, boshidanoq har ikki tomon uchun rasmiy tusda kechadi. Er-xotin orasidagi hissiy masofa, yangi muhitdagi yolg'izlik Effining ichki dunyosida bo'shliq va yetishmovchilik tuyg'usini paydo qiladi. Effi vaqt o'tishi bilan mehr va yaqinlikka bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, erining tanishlaridan biri bilan qisqa vaqtli yashirin munosabatda bo'ladi. Bu munosabat uzoq yillar davomida sir saqlanadi, ammo oradan vaqt o'tib, Innstetten bu borada xabar topadi.

¹ Толстой Л. Танланган асарлар. Анна Каренина/Мирзакалон Исмоилий таржимаси. Тошкент, Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 3-6

Burjua jamiyatining qat'iy axloqiy qoidalariga sodiq qolgan Innstetten buni kechirmaydi: u Effini uydan haydab yuboradi va uni bolasi bilan aloqasini uzadi va o'zini jamiyat oldida "sharafini saqlagan" erkak sifatida tutadi. Effining bu holatdan keyingi hayoti ijtimoiy va ruhiy izolyatsiya bilan kechadi. Ota-onasi uni qabul qilmaydi, jamiyat esa unga nisbatan sovuq va tanqidiy munosabatda bo'ladi. U sog'lig'i yomonlashgan holda, ijtimoiy qabul qilinmagan, jamiyat tomonidan unutilgan holatda vafot etadi.

Muhokama: Garchi Anna Karenina, Bovari xonim va Effi Briest romanlari uch xil milliy adabiyot vakillarining ijodi bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy asos syujet strukturasidadir.

Uch asarda ham ayol qahramon jamiyat me'yorlari bilan o'z tuyg'ulari o'rtasida kurashayotgan, sevgini tanlagani uchun jazolanuvchi, fojiaiy taqdirga duchor bo'lgan ayol sifatida tasvirlanadi. Syujet bir xil modelga ega: ijtimoiy foyda asosidagi nikoh, hissiz oila, muhabbat izlash, jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik va yakunda fojiaiy o'lim. Biroq bu o'xshash struktura turli adabiy yondashuvlar orqali turlicha talqin etiladi.

Flaubert fransuz realizmiga xos obyektiv, bahosiz tasvirni tanlasa, Tolstoy rus realizmiga xos axloqiy-falsafiy qatlamni kuchliroq kiritadi. Fontane esa nemis adabiyotiga xos ichki dramatismni sokinlik va estetik vazminlik bilan yoritadi. Ushbu uslubiy farqlar milliy adabiy maktablar va madaniy muhitlarning bevosita ta'siridan dalolat beradi. Shunday qilib, syujetdagi o'xshashliklar o'qilayotgan fojiani umumlashtirsa, yozuvchilarning yondashuvi va mahorati uni xususiylashtirib, har bir qahramonni alohida adabiy hodisaga aylantiradi. Masalan: Flaubertning "Bovari xonim" asari fransuz realizmining chinakam namunasidir. Roman burjua jamiyatining oddiy ayol orzulari bilan qanday ziddiyatga kirishishini, uning ruhiy iztiroblarini va ijtimoiy taqiqlarning fojiali oqibatlarini tasvirlaydi. Flaubert bu asarida jamiyatning ikkiyuzlamachi axloqiy mezonlarini sovuqqon, tanqidiy nigoh bilan fosh etadi.

Tolstoyning "Anna Karenina" romanida Rossiya jamiyatining axloqiy qadriyatlari, nikoh muqaddasligi va insoniy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlar tahlil qilinadi. Asar o'zining ichki dramatismi, ruhiy murakkabliklar va ijtimoiy bosimlar bilan ayol taqdiriga ta'sir etuvchi kuchlarning murakkabligini ifodalaydi. Tolstoy jamiyat qoidalari ostida ezilgan ayol ruhiyatini chuqur aks ettirishga intiladi. Fontanenining "Effi Briest" asari esa nemis realizmining o'ziga xos namunasidir. Unda tashqi ko'rinishda tinch va barqaror ko'ringan jamiyat muhitida yashayotgan yosh ayolning hayoti orqali, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlar sistemasining qanchalik qat'iy va murossasiz ekani ko'rsatiladi. Fontane yozuvchilik uslubida sokinlik, kuzatuvchanlik va tanqidiy mulohaza ustuvorlik qiladi. Teodor Fontane yaratgan Effi obrazi boshqa ikki qahramondan farqli ravishda ancha vazmin, ichki sokinlikka ega, ijtimoiy me'yorlarga mos yashashga intiluvchi, jamiyat va oilaga hurmat bilan qarovchi shaxs sifatida aks ettiriladi. U o'ziga yuklangan ayollik vazifalarini bajargan, fidokor, begunoh niyatli yosh ayol bo'lishiga qaramay, jamiyat uni birgina xatosi uchun kechirmaydi. Aynan shu holat orqali Fontane jamiyatda ayol xatolarining qanday baholanishini, kechirimlilik mezonlarining ikkiyuzlamachiligini ochib beradi.

Tolstoyning "Anna Karenina" asarida esa ayol obrazi muhabbat va sadoqatni jamiyat emas, insoniy rishtalardan izlaydi. Anna jamiyatdan emas, o'z his-tuyg'ularidan boshpana qidiradi. Ammo uning bunday tanlovi jamiyat ko'z o'ngida kechirilmas jinoyatga aylanadi.

Uning iztiroblari, sevgidagi halolligi jamiyat tomonidan qoralanadi. Har ikki asarda ham yozuvchilar jamiyatdagi axloqiy mezonlarning erkak va ayol uchun turlicha qo'llanishini tanqidiy ruhda ochib berishgan.

Flaubertning “Bovari xonim” romani esa mazkur uchlik orasida eng erta yozilgan bo‘lib, unda romantizm davri ideallarining ayol ruhiyatiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri ochib beriladi. Emma Bovari real hayotga tayyor bo‘lmagan, orzular va xayollarga berilgan, chinakam romantik obrazdir. U hayotga yengil qaraydi, sevgi va baxtni tasavvuriy go‘zalliklardan izlaydi. Biroq Flaubert uning bu xatti-harakatlarini oqlamaydi, balki befarqlik bilan, go‘yoki jarayonni tomosha qilayotgandek tasvirlaydi. Shu bilan yozuvchi romantik xayollarning fojiali oqibatlarga olib kelishini ayol taqdiri misolida ochib beradi.

Xulosa: Shunday qilib, uch roman muallifi bir xil hayotiy modelni tasvirlagan bo‘lsa-da, Effi ijtimoiy me’yorlarga moslashishga harakat qiluvchi, Anna jamiyatdan his-tuyg‘ularni talab qiluvchi, Emma esa xayoliy orzular bilan yashovchi ayol sifatida talqin qilinadi. Ularning fojeasi orqali yozuvchilar bir davr ayollarining real hayotdagi murosasiz taqdirini yoritadi.

References:

1. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, Akademnashr, 2024
2. Fontane T. Effi Briest. Stuttgart, Suhrkamp Verlag, 2025
3. Flaubert G. Bovari xonim. Toshkent, Yangi Asr avlodi, 2022
4. Толстой Л. Танланган асарлар. Анна Каренина/Мирзакалон Исмоилий таржимаси. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980